

MILLIY IQTISODIYOT REAL SEKTORINING INNOVASION RIVOJLANISHINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK SEKTORINING ISHTIROKINI OSHIRISH

*Mamatkarimov Oybek Maruffjon o'g'li.
AndMI Iqtisodiyot yo'nalishi 4- bosqich talabasi.*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini innovasion rivojlantirish katta hajmda investisiya talab qilib, bunda banklarning ishtirokini oshirish uchun ularning fond bozorida faolliklarini oshirishlari, qimmatli qog'ozlar yordamida o'zlariga investisiya jalb qilishi va real sektor korxonalariga reinvestisiya qilishlari lozim. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti real sektorini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini oshirish imkoniyatini oshirish uchun ular resurs bazasini, jumladan o'zlik kapitalini oshirish kerak. Buning uchun bank aksiyalari investision jozibadorligini oshirish kerak. Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, uning jadal sur'atlar bilan rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta'minlash, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzini yanada oshirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash, aholi farovonligini oshirishda innovatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birgalikda, bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida tijorat banklarini aholi va biznes vakillari jamg'armalarining investisiyalarga aylanishiga, iqtisodiyotda uzoq muddatli pullarning shakllanishiga xizmat qiladigan moliya institutlariga transformatsiya qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Investision muhitning yaxshilanishi natijasida tashqi, shu jumladan, to'g'ridanto'g'ri investisiyalar o'sish sur'atlarining oshishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, ma'lum bir tarmoqlarni faqatgina kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash va markazlashgan investisiyalarni yo'naltirish mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yetarli emas. Iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish, mehnat unumdorligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirib borish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish orqali iqtisodiyotni yanada rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlash belgilangan 1. Buning uchun bazaviy sohalarda ishlab chiqarishni qayta qurish, yangi va zamonaviy texnologiyalarni faol joriy qilish va modernizatsiyalashni jadallashtirish orqali tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, ular o'rtasidagi

o'zaro bog'liqlik va mutanosiblikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish lozimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA Hozirda respublikamiz tomonidan faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berilmoqda, davlat investisiya dasturlarida innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, innovatsiyalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, rivojlanishining barcha bosqichlarida moliyaviy ta'minlash masalalari inobatga olinmoqda. Bunda mazkur maqsadga erishishda, iqtisodiyot real sektoriga katta investisiya kiritish, xususan, bank moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish kerak. Innovatsiyalarni amalga oshirish investisiyalar bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli mamlakatimizda innovatsiya siyosatini olib borishda investisiyalarning samarali ishtirokini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Buning natijasida milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investisiyalar hajmi, ular yordamida ishlab chiqarishga joriy etilayotgan zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan loyihalarning 1-rasm. O'zbekistonda YaIM va asosiy kapitalga investisiyalar dinamikasi (mlrd. so'm)² sonining yil sayin ortib borishini ta'minlash, bunda tijorat banklari uzoq muddatli investision kreditlarini keng ko'lamda ajratish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Natijada, yildan-yilga asosiy kapitalga investisiyalar va YaIM hajmlari oshib bormoqda (1-rasm). Banklar tomonidan innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanidigan korxonalar innovatsiya loyihalarining risk darajasi juda yuqori, likvidligi past degan baho berilmoqda. Bu ushbu korxonalariga bank kreditlarini ajratishda muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish yo'llarini, yangi moliyalashtirish usullarini ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan chuqur tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi va mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Iqtisodiyot sektorlarini innovasion rivojlantirishni keng ko'lamda moliyalashtirishning halqaro amaliyotda keng tarqalgan usullaridan biri – bu fond bozorida kompaniyalar kapitalizatsiya darajasining oshirilishidir. Jahon amaliyoti kompaniyalar kapitalizatsiya darajasini oshirishda va qarz kapitalini jalb qilishda zamonaviy fond industriyasining juda katta investision salohiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Fond bozorining oddiy kredit bozoridan eng katta farqi mablag'ni tezkor olinishi va kattaroq hajmda investorlarning keng ommasidan olish mumkinligi bilan belgilanadi. Masalan, 2020 yilning birinchi choragidayoq jahonning yetakchi fond maydonchalarining birinchi o'ntaligida 23 trln. dollarlik savdo bo'lgan (2-rasm). 2-rasm. 2020 yilning birinchi choragida savdolar hajmi bo'yicha yetakchilik qilgan savdo maydonchalarning birinchi o'ntaligi (mlrd. doll.)³ Bu esa o'sha davr jahon YaIMning kattaligiga teng bo'lmoqda. Agar respublikamiz ko'lamlarini inobatga olsak, fond bozorimiz faolligi jahon fond bozori darajasining hech bo'lmaganda yarmisini tashkil qilsa, milliy iqtisodiyotimizga har yili 25-30 mlrad doll. qo'shimcha investisiya kiritish imkoniyati paydo bo'lar edi Shu bilan birga O'zbekiston tijorat

banklari investisiya faoliyatini keng ko'lamda olib borishlari uchun ular o'z resurs bazasini kengaytirishi, xususan bank kapitalini o'stirish talab qilinadi. MUHOKAMA VA NATIJALAR Bank kapitalini oshirish uchun uning daromadlilikini oshirish kerak. Masalan, Bank of America misolida ROE ko'rsatkichi tushib ketganida bank aksiyalari bozor narxining ham tushib ketganini ko'rishimiz mumkin. Oqibatda bank kapitali o'smay qolgan, va aksincha, ROE ko'rsatkichi ko'tarilganda bank kapitali barqaror o'suvchi tendensiyani ko'rsatgan (3-rasm). 3-rasm. Bank of America kapitali, aksiya bozor narxi va ROE ko'rsatkichining o'zgarish dinamikasi⁴. Bunda bozor kon'yunkturasi kuchli ta'sir qilgan. ROE ko'rsatkichi LIBORga teng yoki past bo'lgan yillarda aksiya narxi ham past bo'lgan ekan. Ushbu o'xshash holat O'zbekiston banklari kapitalizatsiya darajasi past darajada qolayotganiga ta'sir qilayotgan bo'lishi mumkin. Masalan, "O'z sanoatqurilishbank" ATB ROE ko'rsatkichi qayta moliyalashtirish stavkasidan kichik bo'lmoqda (4-rasm). Bu holat esa uning aksiyalari investisiya jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lishi mumkin. "O'z sanoatqurilishbank" ATB ROE ko'rsatkichining dinamikasi⁵. Tarkibiy islohotlar doirasida iqtisodiy rivojlanishda ichki manbalarga tayanish, aholi va biznes vakillari jamg'armalarini investisiyalarga aylantirish, ishlab chiqarish va eksport tarkibi, bozorlarni diversifikatsiya qilish kabi choralarni jadallashtirish talab etiladi. Buning uchun esa tijorat banklari aksiyalarini respublika xususiy investorlari nazarida investisiya jozibadorligini oshirish talab qilinadi. Ushbu sharoit O'zbekiston tijorat banklari tomonidan faqat past riskli va chegaralangan daromadlilikdagi kredit faoliyatini yuritilishi bilan chegaralanmasdan, balki chegaralangan riskli va yuqori daromadli investisiya faoliyati bilan ham shug'ullanishini kengaytirish, buning uchun bank aktivlari va kapitalining rentabelligiga kuchaytirilgan talablarni qo'yish lozim bo'ladi. Iqtisodiy sharoit va global tendensiyalar ta'sirlarini inobatga olgan holda endilikda tijorat banklari Boshqaruvi faoliyatini baholashning konsepsiyasini tubdan o'zgartirish vaqti keldi. Xususan bank menejmenti faoliyatini baholashda asosiy ahamiyat beriladigan ko'rsatkichlar qatoriga bank kapitalizatsiya sur'atini ham kiritish kerak. Bank boshqaruvi raislarini tanlashda bank uchun yuqoriroq kapitalizatsiya darajasini va'da qilgan nomzodlarga ustuvorlik berib ishga olish amaliyotini qo'llash ahamiyatlidir. Shu bilan birga, tijorat banklari kengashlari (kuzatuv kengashlari) bank dividend siyosatini tubdan qayta ko'rib chiqib, uni bank aksiyalarining aksiyadorlar uchun daromadlilikini va likvidligini oshirilishga va risklarini pasaytirishga qaratish yuzasidan ish olib borishlari kerakdir

XULOSA Yuqoridagilarni inobatga olib milliy iqtisodiyot real sektorining innovatsion rivojlanishini moliyalashtirishda bank sektorining ishtirokini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin: 1. Tijorat banklari tomonidan aksiyalar va obligatsiyalar chiqarilish hajmlarini keskin oshirish. 2. Investorlarning keng ommasiga fond instrumentlari bilan operatsiyalar qilishini

qulaylashtirish uchun mobil aloqa dasturiy platformalari yordamida shaxsiy bank hisobini boshqarilgani kabi qo‘l telefonlari orqali fond birjasi chakana savdolarida ishtirok qilish imkoniyatini yaratish. 3. Mobil banking funksiyalarini kengaytirgan holda har bir plastik egalari uchun bankda pul hisobiga parallel ravishda depozitar hisoblarning avtomat tarzida ochilishini yo‘lga qo‘yish. 4. Mijozlar plastik kartalarini boshqaruvchi mobil dasturiy platformani fond bozori instrumentlari bilan operatsiyalar va ushbu bilan bog‘liq tranzaksiyalar qilish imkoniyatini beruvchi opsiyalar bilan boyitish. 5. O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan faqat past riskli va chegaralangan daromadlilikdagi kredit faoliyatini yuritilishi bilan chegaralanmasdan, balki chegaralangan riskli va yuqori daromadli investisiya faoliyati bilan ham shug‘ullanishini kengaytirish. 6. Bank aktivlari va kapitalining rentabelligiga kuchaytirilgan talablarni qo‘yish. 7. Tijorat banklari Boshqaruvi faoliyatini baholashda asosiy ahamiyat beriladigan ko‘rsatkichlar qatoriga bank kapitalizatsiya sur‘atini ham kiritish. Bank bosh menejerlarini tanlov asosida ishga yollaganda yuqoriroq kapitalizatsiya darajasini va‘da qilgan nomzodlarga ustuvorlik berib ishga olish amaliyotini qo‘llash. 8. Banklar dividend siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqish.